

## MUSIQA DARSLARIDA O‘QUVCHI-YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING AMALIY OMILLARI.

Sokolova Fatima Kamilovna  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Tasviriy san’at va musiqa ta’limi kafedrasida o’qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19428675>

**Annottatsiya:** Mazkur maqolada musiqa darslarida o’quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning amaliy omillari tahlil etiladi. Xususan, milliy kuy va qo’shiqlar, vatanparvarlik ruhidagi asarlar hamda O‘zbekiston Davlat madhiyasini o‘rganish orqali o‘quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida amaliy ijro faoliyati, sahna chiqishlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ochib beriladi. Maqolada musiqa ta’limi orqali yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash va ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** musiqa ta’limi, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, musiqa madaniyati, ijro faoliyati, estetik tarbiya, yoshlar tarbiyasi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o’quvchi-yoshlarni har tomonlama barkamol, Vatanga sodiq va yuksak ma’naviyatli shaxs etib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda musiqa ta’limi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki musiqa inson qalbiga bevosita ta’sir etib, unda chuqur hissiy kechinmalarni uyg‘otadi. Ayniqsa, musiqa darslari orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash keng imkoniyatlarga ega.

Musiqa darslarida milliy kuy va qo’shiqlar, vatanparvarlik ruhidagi asarlar hamda O‘zbekiston Davlat madhiyasi kabi muhim musiqiy namunalarni o‘rganish orqali o‘quvchilar qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat va faxr tuyg‘ulari shakllanadi. Shu bilan birga, amaliy faoliyat — qo’shiq kuylash, cholg‘u ijrosi, sahna ko‘rinishlari — o‘quvchilarning bu tuyg‘ularni yanada chuqur his etishiga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Shu bois musiqa darslarida vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishning amaliy omillarini o‘rganish va ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash dolzarb pedagogik vazifalardan biridir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida hal qilinishi zarur bir qator pedagogik maqsadlar va vazifalar belgilab olindi. Jumladan o‘quvchi-yoshlarning chuqur bilim, ko‘nikma va malaka, dunyoqarashlarini shakllantirish, o‘quvchi-yoshlarning intellektual qobiliyatlarini o‘stirish borasida ma’naviy-ma’rifiy kamolini taminlashga qaratilgan ishlar, ularda hissiy ongini oshirish, hayotiy tajribalariga ko‘maklashish orqali jamiyat tarixini chuqur o‘rganish, eng asosiy bosh maqsad va vazifa yangicha fikrlashga, yangicha tafakkurga ega bo‘lgan ijodkor, o‘z vatanini sevuvchi vatanparvar shu bilan birga qardosh xalqlar madaniyatini, ma’naviyatini, san’ati va adabiyotini qadrllovchi hamda ulug‘lovchi yangi insonni tarbiyalashdek yuksak vazifalar bilan uzviy bog‘liqdir. Saidiy She‘roziy aytganidek: “Musiqa inson ruhining yo‘ldoshidir”. Shu bois o‘quvchilarda inson ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqiy idrokni tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh masalasi bo‘lib turadi. Sharqning ko‘pgina xalqlari kabi o‘zbeklar o‘tmish avlodning musiqa san’atida professionalizm eramizning birinchi asrlaridek vujudga keldi va asrlar davomida rivojlanib borib, ijrochilik madaniyatida ham vokal va cholg‘u musiqa

janrlarida ham yuksak badiiy natijalarga erishdi. Ammo professional musiqachilar bizning asrimizgacha ya’ni XX asrgacha amalda nota yozuvini qo’llashmadi.

O’zbek professional ijrochilik madaniyati rivojlanganli sababli, hofiz va sozandalar oldiga qadim vaqtlardayoq alohida talablar qo’yilgan. Havaskor sozanda va xonandalar mashhur ustozlardan uzoq yillar ta’lim olganlaridan keyingina professional ijrochi sifatida yetishganlar. Eng mashhur musiqachilar hatto XX asrlarda ham xon saroylarida xizmat qilish uchun amir saroyiga (yoki boshqa mansabdor shaxslar dargohiga) jalb etilardi. Ular hukmron shaxslarning ijozatisiz xalq oldiga chiqib o’z san’atlarini namoyish qilishdan mahrum edilar. Ko’p qirrali muhabbat lirikasi lapar va yalla, ashulalar asosini tashkil etgan. Vatanparvarlik avvalam bor o’z Ona-Vataniga mexr-muhabbat, sadoqat tuyg’ularini, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, xalqlar do’stligi uchun tinimsiz kurash olib borish, aqlan va manan yetuk tarbiyalangan, shuningdek dunyo kishilarini birlashtirib turgan baynarmilal dunyoqarash tuyg’ularini tarbiyalash borish va o’quvchi-yoshlar ongida shakllantirib berishni o’z ichiga oladi.

Ta’lim tizimini yangilash jarayoni mustaqil yurtimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida asosiy masala bo’lib, bu davr xalq ta’limi tizimi talab qilgan maqsad va vazifalar XXI – asrning ma’naviy jihatdan yetuk, bilimli barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Xususan umuy o’rta ta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarida vatanparvarlik va qardoshlik his – tuyg’ularini shakllantirishdek ulkan maqsad va vazifalarni hal qilish muammolarini yechish yotadi. Respublikamiz xalq ta’limini isloh qilishning pirovard maqsadi va vazifasi ham yosh avlodni jahon andozalariga mos keladigan ta’lim va tarbiya sifatini yaxshilash, ta’limda sifat va samaradorlikka erishish, yangi ilg’or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta’lim va tarbiya berish, shaxsning ma’naviy – axloqiy sifatlarini shakllantirishdan iborat. Darhaqiqat uning asosiy negizi musiqa darslarini sifatli va samarali olib borishda vatanparvarlik va qardoshlik his – tuyg’ularini shakllantirish tashkil etadi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasining barcha bo’g’inlari –maktabgacha ta’lim, maktab,o’rta-maxsus, va oily ta’lim tizimini takomillashtirish, ya’ni yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta’mirlash bo’yicha olib borilyapti. Umumta’lim maktablarida musiqa tarbiyasi, uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagi, davlatimizni buyukligini tasavvur etganining natijasiga ko’ra ta’lim-tarbiya sohasida yangicha islihotlar olib borilyapti. Bunda «Ta’lim to’g’risidagi Qonun» hamda «Davlat Ta’lim Standartlari» asosiy omil bo’lib xizmat qilmoqda. Ta’lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog’onasi bo’lgan boshlang’ich sinflarda ham katta o’zgarishlar olib borilmoqda. Shu bois, ta’lim-tarbiyaga oid maqsad va vazifalarni o’zida mujassamlashtirgan istiqbolli dasturlar ishlab chiqildi. Unda uzluksiz davom etadigan bir butun ta’lim-tarbiya jarayoni yetakchi rol o’yniyadi. Birgina shu yondashuvning o’ziyoq tarbiyaga mehribonlik va adolat bilan qarashni talab etadi. Negaki, bugunki yosh avlod zimmasida XXI asrda kuchga to’lib, sog’lom, bilimli, aqlli bo’lib jamiyatimizning faol a’zolariga aylantirishdek ulkan vazifa turibdi. Agar yoshlarimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni va vatanparvarlik bilan uyg’unlashtira olsak, bundanda ziyoda qudratni topa olmaymiz.

O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti «Bolalarimiz bizdan ko’ra dono, aqlli, bilimdon, sog’lom va albatta baxtli bo’lishi kerak», - deb ta’kidlashlari bejiz emas.«Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo’l urmaylik, avvalo, yoshlarga, ularning kuch-g’ayrat, azmu shijoatingizga suyanamiz.

Barchangiz yahshi bilasiz, bugun o’z oldimizga ulkan marralar qo’yanmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo’lg’usi Renessansning eng muhim bo’g’inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va

vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar». Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy madaniyatini shakllantirishda ta’lim muassasalarining oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad - o‘quvchi yoshlarni ma’naviy-intellektual bilimlarini oshirish, badiiy - estetik didlarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish, zamonaviy bilimlar majmuasini o‘rgatish, mustaqillik izlanuvchanlik, tashabbuskorlikni shakllantirish, o‘quvchi – yoshlarni ma’naviyatga, san’atga, turli sohalarga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalash va bo‘sh vaqtlarini foydali faoliyat turlariga yo‘naltirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy madaniyatini shakllantirishda mehnat qo‘shiqlaridan foydalanish davomida o‘quvchi - yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarini olib borishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ulrni xalq urf-odatlarini, namunalari, kompozitorlik bastakorlik kuy-qo‘shiqlar vositasida zamonaviy bilim ko‘nikmalarini rivojlantirish samarali natija beradi. Uzluksiz ta’lim tizimidagi fanlarni o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri ta’lim oluvchilarni tafakkurini rivojlantirishdan iborat. Chunki tafakkur ta’lim oluvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va takomillashtirish omili bo‘lib xizmat qiladi.

### **Xulosa.**

Musiqqa darslarida o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim pedagogik vazifa bo‘lib, u bevosita amaliy faoliyat orqali samarali amalga oshiriladi. Ayniqsa, milliy kuy va qo‘shiqlarni o‘rganish, O‘zbekiston Davlat madhiyasini to‘g‘ri va ongli ijro etish, shuningdek, tarixiy va ma’naviy mazmundagi asarlar bilan tanishish o‘quvchilarda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, qo‘shiq kuylash, cholg‘u asboblari ijro etish, sahna chiqishlari va turli musiqiy tadbirlar o‘quvchilarning nafaqat musiqiy qobiliyatini, balki jamoaviylik, mas’uliyat va milliy o‘zlikni anglash kabi muhim sifatlarini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo‘llash esa bu jarayonni yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suxomlinskiy V.A. Tarbiya haqida. M.: 2020y, 100 b.
2. Kiyamov N.S. Maktab musiqqa darslarida vatanparvarlik va baynalmilal tarbiya’ni o‘ziga xosligi. Tosh. O‘quvnashr. 2020 yil.
3. Janaydarov Sh. Musiqqa to‘garaklari orqali yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi. Avtoreferat. Toshkent 2020 yil, 18 bet.
4. Nurmatov X.N. Maktabda musiqqa.- Toshkent: fan, 2021 y, -86 bet.